

FARG'ONA VODIYSI QIRG'IZLARI MADANIYATIDA ETNOLINGVISTIK OMILLAR

Inatullayev Baxromjon Boqijonovich

Namangan davlat universiteti San'atshunoslik kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi qirg'izlari madaniyatida til, uning etnolingvistik xususiyati, tilning milliy identiklikni saqlashdagi roli, Farg'ona vodiysi qirg'izlari madaniyatida ikki tillilik (bilingvizm) hodisasi va uning oqibatlarini atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi qirg'izlari, til, etnolingvistika, marginalizm, madaniyat, bilingvizm, identiklik, madaniyat, empatiya

ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В КЫРГЫЗСКОЙ КУЛЬТУРЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация. В данной статье рассматривается язык в культуре кыргызов Ферганской долины, его этнолингвистические особенности, роль языка в сохранении национальной идентичности, феномен двуязычия (двуязычия) в культуре кыргызов Ферганской долины и его последствия тщательно анализируются.

Ключевые слова: кыргызы Ферганской долины, язык, этнолингвистика, маргинализм, культура, двуязычие, идентичность, культура, эмпатия.

ETHNOLINGUISTIC FACTORS IN THE KYRGYZ CULTURE OF THE FERGANA VALLEY

Abstract. In this article, the language in the culture of the Kyrgyz of the Fergana Valley, its ethnolinguistic features, the role of language in maintaining national identity, the phenomenon of bilingualism (bilingualism) in the culture of the Kyrgyz of the Fergana Valley and its consequences are thoroughly analyzed.

Key words: Kyrgyz of the Fergana Valley, language, ethnolinguistics, marginalism, culture, bilingualism, identity, culture, empathy

Hozirgi Farg'ona vodiysi qirg'izlari aslida bir millatga mansub, ammo ikki hududda yashashi sababli, ularning tili farq qilib, o'ning y' dan keyin paydo bo'lishi mumkin emas, ya'ni, masalan, o'z tarkibida y' bo'lgan o'zakdan keyingi ko'plik qo'shimchasida y' emas, e tovushi: уйлер (ko'plik). Farg'ona vodiysi qirg'izchasida уйёр, кундор, черулёр bilan (qirg'izcha lug'atlarda shunga o'xshash so'z yo'qligining alohida holatlari mavjud) уй "уй"), күдер (күн "kun"ning ko'pligi), черүлер (черү "qo'shin"ning ko'plik shakli) tarzda qo'llaniladi.

Bilingvizm, ya'ni ikki yoki undan ortiq tilni bilish, ko'p tillilikni ijobiy jihati bo'lganidek, salbiy tomoni ham bor, til o'rganish, zarurat yoki ehtiyoj bo'lgani kabi, avvalo ona tilini chuqur bilish, e'zozlash va hurmat ruhida tarbiyalash kerak bo'ladi. Ona tiliga nisbatan bexurmatlik va bepisand bo'lish, ijtimoiy-madaniy me'yorlarning buzilishi oqibatida marginalizm hodisasi ro'y beradi.

Ikki tilli bo'lish ularning shaxsiyatini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Farg'ona vodiysi qirg'izlari, nafaqat o'zbek-qirg'iz tilida, balki sobiq ittifoqdan meros, rus tilida ham muloqot qilishlariga to'g'ri keldi. Ko'p tilli muhit, shart-sharoitida insonning o'z-o'zini anglashi, hayotning turli jabhalari: oila, jamoatchilik, ta'lim va ish faoliyatida muloqotda til tanlash orqali shakllanishi mumkin.

Qarama-qarshilik va tushunmovchiliklar: tillar o'rtasidagi madaniy almashish ba'zan muloqot va tushunishda qiyinchiliklarga olib keladi, bu esa shaxslararo va madaniy kontekstda nizo hamda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, ikki yoki undan ortiq tilda muloqot qilish, inson psixologiyasi va ma'naviyatiga turli xil ta'sir ko'rsatadi hamda bu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olish muhimdir.

"Marginalizm (lotincha marginalis-chekkada joylashgan) ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida insonning har qanday ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi oraliq, "chegara" pozitsiyasini bildiruvchi tushuncha sifatida uning psixikasida ma'lum iz qoldiradi. Marginal guruh

joylashgan hudud madaniyati, ma'lum qadriyat va an'analarini rad etadigan barcha o'ziga xos me'yori va qadriyatlar tizimini buzilishi tufayli sodir bo'ladi".[1.]

Marginallashtiruv oqibati - bu alohida shaxs yoki guruh o'zi mansub bo'lgan etnik guruh yoki millatning milliy madaniyati, milliy qadriyat va an'analariga nisbatan bexurmat hamda bepisand munosabatda bo'lish natijasidir. Marginallashtiruv shunday illatning boshiki, u tufayli, milliy til, etnomadaniyat va etnik mansublik kabi masalalar ham zalolatga uchraydi. Xususan, til, qadriyat va milliy o'zlikni tanazzulga uchrashidan millatga bo'lgan muhabbat, oila muqaddasligi va dinga ishonchni susaytiradi.

Janubiy Oltoy qirg'izlari tilida lablashgan unlilarni to'g'ri va o'z o'rnida qo'llash uslubi saqlanib qolgan. Qirg'iz tili: shimoliy qirg'iz, janubiy qirg'iz, talas va farg'ona-qipchoq tili, sheva (dialekt)sidan iborat. Hozirgi Farg'ona vodiysi qirg'izlari tili turkiy tillarning qipchoq guruhining qirg'iz-qipchoq kichik guruhiga kiradi. Qirg'izistonda mavjud bo'lgan hozirgi zamon qirg'iz tiliga, ko'proq rus tili ta'sir qilgani sababli, milliy xususiyatini yo'qotib bormoqda. Shu sababli janubiy Oltoy va Farg'ona vodiysi qirg'izlarining tilini o'zaro qiyosiy darajada o'rganish:

БОЛОТ – пўЛАТ, ТӨШӨК - ТӨШӨК, ТОПУРАК-ТӨПУРАК so'zida ö harfga almashuvi, bu til orti talaffuzini, noto'g'ri qo'llanilishi oqibatida har doim ham e'tibor qaratilmaydi. Farg'ona vodiysi qirg'izlari og'zaki talaffuzida ö qisqa unsiz va o' unli tovushini o'z o'rnida o'rinli foydalanmaslik natijasida yuzaga keladi. Dialektlar adabiy tilda yo'qolgan shakllarni saqlab qolishi mumkin. Segizen va toguzon imlosi haqiqiy talaffuzni aks ettirmasa ham: tor lablar tushib ketishi mumkin.

XX asrning ikkinchi choragida qirg'iz tilidagi dastlabki lingvistik lug'at nashr etildi. Qirg'iz tilidagi ilk leksikografik asar, ob'ekti sifatida mashhur turkshunos akademik V.V. Radlov tomonidan tayyorlangan, to'rt jildlik "Turk tili lug'ati" asarida turkiy so'zlar lug'ati bilan bir qatorda qirg'iz tilidagi mingga yaqin so'zlarning mazmun va mohiyatini yoritib bergan edi. Dastlabki lug'atlar nafaqat hajmi jihatidan kichik bo'lgan, balki, tarjima xarakteriga ham ega edi. 1940-yilda I.A. Batmanovning ruscha-qirg'izcha lug'ati

Qozonda nashr etildi. Ushbu lugʻat ham avvalgilari kabi tarjima xarakteriga ega boʻlish bilan birga umumturkiy soʻzlardan iborat boʻlgan. Atoqli turkolog-leksikograf professor K.K. Yudaxin 1965-yilda 25 ming soʻzdan iborat qirgʻizcha-ruscha lugʻati nashr etildi.

Tilning lugʻat boyligi va rang-barangligi lugʻatlarda jamlangan, bugungi kunda lugʻatlarning jamiyat ma'naviy hayotida, oʻz xalqi, millati madaniy merosini anglashda tutgan oʻrni tobora ortib bormoqda. Zamonaviy hayotning tez sur'atlari tildagi doimiy oʻzgarishlarga toʻgʻri kelganligi sababli, lugʻatlar zamon talablariga muvofiq yangilanishi kerak. Sovet davrida nashr qilingan “Rus-qirgʻiz” tilidagi lugʻatni oʻrganishlar natijasiga koʻra, lugʻatdan oʻrin olgan, ayrim, qirgʻizcha soʻzlar, qozoq, tatar yoki boshqird tilida ham aynan tarzda uchrashi shuni koʻrsatadi-ki, bu lugʻatlarda tilning oʻziga xos xususiyatidan koʻra, koʻproq turkiy tillarning umumiy ma'nosidan kelib chiqilgan edi.

“Qirgʻiz tilining izohli lugʻati”da soʻzlarning ma'nosini ochib beruvchi, izohlovchi leksikografik asardir. 1969-yilda J.Shukurov boshchiligida bir jildda nashr etilgan. Oʻrtacha 25000 ta soʻz va iborani oʻz ichiga oladi. Keyinchalik, 1984-yilda lugʻatning toʻldirilgan 1-jildi (A dan) nashr etildi, ammo, 2-jildi esa ayrim sabablarga koʻra nashr etilmadi [2.]. Ushbu izohli lugʻatdan hozirgi zamon qirgʻiz tilidagi soʻzlar oʻrin olgan boʻlib, biroq, qirgʻiz tiliga nafaqat turkiy tillardagi oʻzlashma soʻzlar balki, xalqaro atamalar ham oʻrin olgan. Ammo, arxaik soʻzlar kam oʻrin olgan, sababi oʻrta asrlarga oid qirgʻiz tilidagi manbalar kam saqlangan. Qirgʻiz tilining izohli lugʻatiga oid hozirgi bosqichida savollar alohida ahamiyatga ega qirgʻiz tilida ta'lim sifatini ta'minlash. Davlat tilini oʻzlashtirishning leksik minimumlari, afsuski, hozirgacha mutaxassislar tomonidan toʻliq oʻrganilmagan, shuning uchun ham toʻliq hajmda foydalanilmayapti.

“Etnolingvistika (grekcha *ēthnos*-xalq, qabila), lingvistik antropologiya til va madaniyat oʻrtasidagi munosabatlarni, shuningdek, turli etnik guruhlarning dunyoni idrok etish xususiyatlarini oʻrganuvchi tilshunoslikning boʻlimidir. Bu tilshunoslik va etnologiyaning kombinasiyasi - butun jamoalar hayotining jihatlari, ya'ni bir jamoani boshqalardan ajratib turadigan xususiyatlar oʻrganiladi”[3.].

Hozirgi ayrim qiyinchiliklariga qaramay, Markaziy Osiyo xalqlarining xilma-xilligini ajralmas qismi bo'lgan etnomadaniy o'ziga xosligini saqlab qolishda davom etmoqda. Farg'ona vodiysi qirg'izlarining o'ziga xosligi tili, etnomadaniyati va etnik mansublikni maishiy-madaniy turmush darajasi kabi turli unsurlarni o'z ichiga oladi. Ikki tillilik ularning shaxsiyatiga qo'shimcha qatlamlar qo'shishi mumkin, bu ularga turli madaniy va lingvistik kontekstlarda ishtirok etish imkonini beradi. Farg'ona vodiysi qirg'izlarining o'ziga xosligini boshqa etnik guruhlar bilan o'zaro munosabatlari, ularning tarixiy tajribasi, diniy va etnomadaniy e'tiqodlari, ular yashayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muhitni ham shakllantirishi mumkin. Empatiya bu farqlarni tushunish: turli tillarda muloqot qilish, turli madaniyat hamda mentalitetlarning xilma-xilligini yaxshiroq tushunish, anglash va qadrlashga yordam beradi. Bu empatiya va bag'rikenglikni rivojlantirishga yordam beradi. "Empatiya -bu zamonaviy psixologiyaning o'ziga xos turi bo'lib, u insonning o'zini boshqa shaxs o'rnida tasavvur qilishi, boshqa birovning his-tuyg'ulari, istaklari, g'oyalari va harakatlarini refleks darajasida amalga oshirishdir. Boshqalarga yaxshi munosabatda bo'lish qobiliyatini anglatadi, unga o'xshash his-tuyg'ularni his qilish, uni o'z vaqtida hissiy holatini anglash va tan olishdir. Suhbatdoshga nisbatan empatiyani ifodalash, uning nuqtai nazaridan vaziyatni ko'rish, uning hissiy holatini "tinglash" qobiliyatiga ega bo'lishini anglatadi"[4.]. Haqiqiy empatiya nafaqat boshqalarga nisbatan yuqori hissiy sezgirlikni o'z ichiga oladi, balki boshqa odamlarni tushunishning yuqori qiymatini ham anglatadi. Bu xususiyat, ikki va undan ortiq tilni biladigan shaxsga xos xususiyat, deb qaraladi. Ma'naviy boyitish: ko'p tillarni o'rganish, bilish dunyo haqidagi tasavvur, tafakkur va dunyoqarashni kengaytirish hamda ichki dunyo va nuqtai nazaringizni boyitish imkonini beradigan ruhiy jarayon bo'lishi mumkin. Identifikasiyaning bo'linishi: ayrim insonlar turli tillarda so'zlashi sababli milliy o'zlikni anglash va etnomadaniy jihatlarini saqlashda kutilgan hamda kutilmagan qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Ayniqsa turli tillar, turli ijtimoiy -madaniy, iqtisodiy yoki siyosiy jihatlarni qamrab olsa. Tildan mahrum bo'lish: amaliyotning etishmasligi yoki faqat bitta tilni boshqa til hisobiga ishlatish

ko'nikmasi, madaniyat bilan aloqalarni yo'qolishiga olib keladi, bu esa ma'naviy farovonlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. "O'zining ko'plab so'nggi nashrlarini rus tilida yozgan Ch.Aytmatov ijodi tufayli bu til qirg'iz milliy madaniyatini, yuksak badiiy mahorat va ilmiy adabiyotlar tilini rivojlantirishning samarali vositasiga aylanib bormoqda. "Rus tilida badiiy asar yozish, demak, men uchun keng formatda suratga olish bilan bir xil. Katta "adabiy tajriba"ga ega bo'lgan boshqa tilning tajribasi va uning ortidagi madaniyat doimo mavjud bo'lib, menga asta-sekin, o'z-o'zidan, go'yo ko'rinmas tarzda qarashlar doirasini kengaytirishga yordam beradi", deb yozgan edi Ch.Aytmatov" [5.]. Tilshunos shaxs bo'lishning asosiy sharti ona tilini mukammal bilishdir, chunki faqat ona tili insonga har tomonlama xizmat qiladi, unga ona bo'lmagan tillarni o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Faqat ona tili milliy ehtiyojlarni qondiradi va ijtimoiy o'zaro munosabatlar jarayonida to'liq millatlararo muloqotni ta'minlaydi. Ona tilimizni bilish ta'lim-tarbiyamizning muhim asosidir. Bu ayniqsa boshqa tilni o'rganishda, ona tilidan qandaydir ongli ravishda rad etish sodir bo'lganda kuzatiladi. Ona tiliga tayangan holda grammatik kategoriyalar, so'zlarning semantikasi, so'zning stilistik ranglanishi, to'g'ri talaffuz va urg'u ham yaxshi o'zlashtiriladi. Aynan ona tili etnik jarayonlarning rivojlanishida eng muhim omil hisoblanadi. Ona tilining amal qilishi etnik guruh mavjudligining kalitidir.

Adabiyotlar

1. Оганов А. А. Феномен маргинальности в культуре. Москва: МГУ, 1999, -С. 64-65.
2. Кыргыз тилинин түшүндүрмө сөздүгү. Фурузе: 1971, -Б. 678.
3. Перехвальская, Е. В. Этнолингвистика. учебник. –Москва: Юрайт, 2018. -С. 351.
4. Рахимова И.И., Рустамова М. "Эмпатия" атамаси ва унинг ўсмирлик давридаги хусусиятларини тушуниш. // Eurasian journal of law, finance and applied sciences.-Тошкент, 2023. -Б. 174-177.
5. Дыйканова Ч. Чингиз Айтматов и двуязычие.// www.СловоКыргызстана.02.06.2023.